



LEKSIK OKKAZIONAL BIRLIKLARDA USLUBIY MA'NO

Qurbonova Moxinur Abdusoli qizi

Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7834827>

Annotatsiya: maqolada leksik okkazional birliklarning uslubiy vazifasi milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti asarlarida qo'llangan okkazional birliklar misolida yoritilgan.

Kalit so'zlar: leksik okkazional birlik, uslubiy vazifa, uslubiy ma'no, dunyodorlik, ovrupovoriy, cho'zanak, badiiy mazmun.

Okkazional so'zlar nutq jarayonida muhim uslubiy vazifa bajarganidek, tilning leksik sostavini ham boyitib boradi[1]. Badiiy asarlar, ayniqsa, she'riyat badiiy okkazionalizmlar yaratiladigan maydon hisoblanadi. Shoir yoki yozuvchi o'zining xayoliy dunyosini kitobxonga yetkazish uchun izlanadi. Okkazionalizmlarning asosiy vazifasi aniq badiiy nutqiy holat uchun xizmat qilish bo'lib, ular til faktiga aylanishi yoki aylanmasligi mumkin. Ularning qimmatini bu bilan emas, kontekstda o'zining badiiy funksiyasini qanday bajarganligi bilan o'lchanadi[2]. Badiiy adabiyotda nafaqat mazmun, balki so'zning qanday jaranglashi ham muhim rol o'ynaydi. Mazmun va jarangdorlik birgalikda ta'sirchanlikni vujudga keltiradi. Demak, badiiy nutqda asosiy e'tibor ana shularga qaratiladi. Badiiy nutqda ishlatilgan okkazionalizmlarni o'rganishdan shu narsa ma'lum bo'ladiki, ular ma'lum maqsadlarda qo'llanadi:

Jonlandi, yashardi, ko'kardi qarashim,

O'zimda bir turli erkinlik sezaman (Cho'lpon, "Barg").

Tabiatga nisbatan qo'llanadigan jonlanmoq, yasharmoq, ko'karmoq so'zlari qarash so'zi bilan kontekst doirasida sintagmatik munosabatga kirishib, okkazional ma'noni hosil qiladi.

Okkazional so'zlar nutqning mazmunini aniq, to'g'ri, obrazli va barcha qirralari bilan aks ettirish maqsadida yaratiladi. Bu ma'noda ular nutqda muayyan badiiy estetik vazifani bajaradi[3].

Oyxon: Oh, vafosiz falak, bu qandayin dunyodorlikki, har bir yurtning hokimida shundayin yomon tuyg'ular bordir (Hamza "Maysaraning ishi" 17-bet).

Asarda Oyxonning tilidan keltirilgan parchada dunyodorlik so'zi "hukmdorlik" ma'nosida qo'llangan. Dunyodor so'zining "boy odam, hukmdor" ma'nolari bor, -dor - bu, affiksoid, "bir narsaga ega" ma'nosini ifodalovchi hozirgi zamon fe'li. Keltirilgan misoldagi "dunyodorlik" so'zi orqali adib Oyxonning bu zolim dunyoga, zolim amaldorlarga, ularning vahshiyona qilmishlariga nisbatan bo'lgan munosabatining kuchli ekanligini ko'rsatmoqchi





bo'lgan.

Ovrupovoriy tosh imoratlar, ibodatxona, dorulfufundek katta maktabxonalar, "artizan" – suv berguvchi quduqlar, no'mralar (Behbudiy "Qasdi safar").Ovrupovoriy so'zi orqali Yevropaga monand, yevropacha ma'nolari ifodalangan.. Maktabga nisbatan maktabxona, mehmonxona xonalariga nisbatan esa no'mra so'zini qo'llaydi.

Abdulla Avloniy she'riyati leksikasining ma'noviy-uslubiy xususiyatlari bo'yicha tadqiqot olib borgan S.Normamatov okkazional so'zlarni ham uslubiy ma'no jihatidan tahlilga tortgan[4]. Tadqiqotchi Avloniy tomonidan qo'llangan bedorlashayluk so'zini quyidagicha izohlaydi:

Bedor so'zi ("uyg'oq, xushyor, sergak") ma'nosiaga ega. Abdulla Avloniy ushbu so'z asosida bedorlashaylik fe'lini yasaydi va uni "hadeb beg'am bo'lmay, ko'zimizni ochaylik", ya'ni "ilm ziyosidan bahramand bo'laylik" ma'nosida qo'llab okkazional leksemani vujudga keltirgan:

Yotma millat, uxlama, bedorlashayluk,

Milliy ishlar, ishlarga, tur bel
bog'lashayluk. (Toshkent ongi, 79-bet)

Taraqqiy qilgan millatlar teyotrxonalarni ulug'lar uchun maktabi adab va ibrat ataydurlar (Behbudiy, "Teyotr nadur"). Ibrat [a.o'git, pand-nasihat, namuna, o'rnak] Namuna, o'rnak bo'ladigan ish, xatti-harakat. Bola tarbiyasida otanonaning ibrati, ayniqsa, bebaho. Gazetadan. (O'TIL, II, 170) Behbudiy teatrni maktabi adab, ibrat deya ataydi. Teatrni maktabi adab, ya'n odob-axloq maktabi, ibrat deyilishi ham bejiz emas. Ijodkor teatr tarbiya maskani ekanligini ifodalamoqchi bo'lgan.

Matn doirasida so'zlarda tovush almashishi natijasida ham okkazional birliklar yaratiladi. Yasovchi asoslar tovushdoshligi, fonetik jihatdan yaqinligiga ko'ra almashtirilishi tufayli ham g'ayriodatiy yasalma yuzaga kelishi mumkin. S.Toshaliyeva bu hodisani fonomorfoloqik usulda yasalgan okkazional so'zlar deb izohlaydi[5]. Cho'lponning "Tong" she'rida qo'llangan cho'zanak so'zi bunga misol bo'la oladi. Shoir so'zanakning yerda cho'zilib yotganiga ishora qilib, uni cho'zanak deb ataydi:

Ey, cho'zanak dedim, jonsiz yotma,

Qanotchangni vizillatib uchgil

Uchib gulzorlarga borib tushgil,

Deydi : g'ofil tong otguncha shoshma(Cho'lpon "Tong", 135-bet) Bizningcha, so'zanakka nisbatan cho'zanak so'zini qo'llamoqda.





“To‘plarning og‘zi ajdardek ochuq va ustinda to‘pchilari-da bordur. Dengiz ostinda mino, ya‘ni jahannam moshinalari-da bordur (Behbudiy “Qasdi safar”). Ma‘lum tovushlar almashishi natijasida ham okkazonal birliklar yaratiladi. Bu misolda mino so‘zi tarkibidagi o tovushi a tovushiga almashgan holat bo‘lgan. Aslida ijodkor mina demoqchi.

Mina [fr.mine] 1.Yer suv ostiga qo‘yiladigan portlovchi snaryad. Tankka qarshi mina. Suv osti minasi. Mina qo‘ymoq. – ...yo‘l yo‘g‘on daraxtlar bilan to‘silib, atroflarga mina ko‘mildi. I.Rahim, Chin muhabbat. 2. Minomyotdan otiladigan snaryad. Boshimiz ustidan minalar chinqirib o‘tib yoriladi. Sh.Rashidov, Qudratli to‘lqin. (O‘TIL, 2-jild, 594-bet)

Minani qo‘rqinchliligini ifodalash uchun yana bir nom ya‘ni “Jahannam moshinalari” deb ataydi.

Okkazonal ma‘no orqali ijodkorning niyati, ko‘nglidagi gaplari aks etadi. Lekin har qanday so‘zni har doim ham o‘z ma‘nosida tushunvermaslik kerak. Poetik nutqni boshqa nutq turlaridan farqlab turuvchi omillardan biri ham unda so‘zlar qanday qo‘llanilgan bo‘lsa, shunday so‘zning o‘z ma‘nosida tushunilmasligidir. Agar poetik nutqda uchraydigan so‘zlar asl ma‘nosida qabul qilinsa, mantiqsizlik holati ham kelib chiqadi[1].

Okkazonal so‘zlar nutq ichida ma‘lum matn doirasida reallashadi. Ijodkorning maqsadini ana shu doira ichidan aniqlab olish mumkin. Ularni yaratish, avvalo, muallif mahoratiga bog‘liqdir.

Foydlanilgan adabiyotlar:

1. Умурқулов.Б Поэтик нутқ лексикаси – Т., Фан, – 1990. Б.54.
2. Мўминов С. Окказионал нутқий номинацияда мотивациянинг роли: Филол. фанлари номзодидис. –Т., 1990, –Б. 82.
3. Тўхтасинова О. Ўзбек тилида лексик окказионализмлар ва уларнинг бадий-эстетик хусусиятлари: Филол. фанлари номзоди ... дис. –Т.,2007. – Б.118.
4. Нормаматов С. Абдулла Авлоний шеърятининг лексикасининг маъновий услубий хусусиятлари . : Филол. Фан. номзоди ... дис. – Т. 2011. – Б. 94.
5. Тошалиева С. Ўзбек тилида окказионал сўз ясалиши: Филол. фанлари номзоди ... дис. –Тошкент.,1998. –Б. 51-53.

